

AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY SIYOSAT

Xujamurodov Ma'ruf

Osiyo xalqaro unversiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19798075>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur davrida davlat boshqaruvi tizimi va harbiy siyosatning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Asarda markazlashgan boshqaruv, adolat tamoyillari hamda "Temur tuzuklari"ning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Amir Temurning harbiy strategiyasi, qo'shin tuzilishi va jang olib borish uslublari haqida ma'lumot beriladi.

Maqola davomida uning faoliyati natijasida Samarqand shahrining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylangani ta'kidlanadi.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности системы государственного управления и военной политики в эпоху Амир Темур. Освещаются принципы централизованного управления, справедливости, а также значение Тузуки Темура. Кроме того, приводится информация о военной стратегии Амира Темура, структуре его войска и методах ведения боевых действий. В статье также подчеркивается, что в результате его деятельности Самарканд превратился в крупный политический, экономический и культурный центр.

Annotation. This article analyzes the peculiarities of the state administration system and military policy during the era of Amir Temur. The work highlights centralized governance, principles of justice, and the significance of the "Temur regulations." It also provides information on Amir Temur's military strategy, army structure, and combat tactics. Throughout the article, it is emphasized that as a result of his activities, the city of Samarkand became a major political, economic, and cultural center.

Kalit so'zlar: Amir Temur, davlat boshqaruvi, harbiy siyosat, markazlashgan davlat, Temur tuzuklari, harbiy strategiya, qo'shin tuzilishi, Samarqand, Temuriylar davlati, tarixiy meros.

O'rta asrlar tarixida Amir Temur nafaqat buyuk fotih, balki qudratli markazlashgan davlat asoschisi va dahlo siyosatchi sifatida alohida o'rin tutadi. Uning boshqaruv tizimi va harbiy islohotlari o'z davri uchun inqilobiy xarakterga ega bo'lib, "Kuch — adolatdadir" tamoyiliga asoslangan edi.

Amir temur mamlakatni boshqarishda o'z yaqinlariga suyangan. Davlat boshqaruvi ishlarida isom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur'oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda ikki muhim ustunga tayangan: qonun ustuvorligi "Tuzuklar" va kengash (mashvarat). U davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash va tadbir, qolgan bir ulushini esa qilich, "kuch" bilan amalga oshirishni afzal ko'rgan.

Amir Temur saltanatida yetti nafar vazir tomonidan boshqarilgan. Ular soliqlar, qo'shin ta'minoti, xazina va adliya ishlariga mas'ul bo'lgan. Har bir soha bo'yicha hisobotlar bevosita hukmdorga taqdim etilgan, bu esa korrupsiya va tartibsizlikning oldini olgan.

Amir Temur har bir hududda xalq ahvolidan xabardor bo'lib turish uchun maxsus axborot yetkazuvchilar (mushriflar) xizmatini yo'lga qo'ygan. Bu tizim amaldorlarning o'zboshimchaligiga chek qo'ygan va xalqning haq-huquqlarini himoya qilgan.

Tashqi va ichki favqulodda holatlardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda va ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun saltanat bo'ylab bir kunlik yo'l oralig'ida yomxonalar tashkil etilgan. Har bir yomda 50–200 boshdan ot-ulov tutilgan.

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofazasi yo'lida ichki va tashqi siyosatda asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham Temur qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi.

Sohibqiron intizomli qo'shin tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turgan.

Amir Temurning dunyoni larzaga solgan harbiy strategiyasi, qo'shin tuzilishi-Armiya o'nlik tizimi (o'nlik, yuzlik, minglik va tuman) asosida shakllantirilgan. Har bir bo'linmaning o'z bayrog'i, nog'orasi va aniq vazifalari bo'lgan.

Harbiy yurish paytida oldinda xabarchilar, orqasidan yasovul bo'linmasi, undan keyinroqda manglay – avangard qism borardi. Manglay bilan qo'shinning orasida izofa qism borar edi. Izofada qo'mondonning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan.

Amir Temur qo'shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o'ng – burong'or va chap – juvong'or qanotlaridan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha manglay avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi askariy qo'shilmalar – qanbullar bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yetti qism – qo'llardan iborat edi.

Jang taktikasi-Temur an'anaviy uch qismli (markaz, o'ng va so'l qanot) jang uslubini 7 yoki 9 qismli murakkab tizimga o'zgartirdi. Bu taktik yangilik dushmanni kutilmagan zarbalar bilan sarosimaga solish va zaxira kuchlardan unumli foydalanish imkonini bergan.

Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shinni yetti qo'lga – qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan. Bu qo'llar jangda mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoniga bo'ysungan.

Xususan, jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qanbulning joriy etilishi bo'lgan.

Intizom va Rag'bat-Jangda jasorat ko'rsatganlar tilla, qimmatbaho qurol, "tarxonlik" unvoni yoki yer bilan mukofotlangan. Shu bilan birga, harbiy intizomni buzgan har qanday askar yoki amir qattiq jazolangan.

Bundan tashqari, Temur davrida ilm-fan, madaniyat, me'morchilik va savdo-sotiq (Buyuk Ipak yo'li) yuksak darajada rivojlangan.

Shunday qilib, Amir Temur nafaqat yirik hududlarni zabt etgan fohih, balki o'z davrining eng ma'rifatparvar va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchisi sifatida tarixda qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Zafarnoma – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997.
3. O'zbekiston tarixi (1-jild) – Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2017.
4. Azamat Ziyo, O'zbek davlatchiligi tarixi – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Bo'riboy Ahmedov, Amir Temur – Toshkent: O'zbekiston, 1995.